



---

**PEDAGOG KASBINI EGALLASHNING NAZARIY METODOLOGIK  
ASOSLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14511296>

**Lixanov Vladimir Olegovich**

*O'rqk Akademiyasi Katta O'qituvchisi*

**Annotatsiya**

Bu maqolada bo'lajak pedagog-o'qituvchilar kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, pedagogning kasbiy-pedagogik faoliyati rivojlanishiga ta'sir etuvchi obektiv va subektiv omillar, pedagogikada psixologik yondashuvga doir metodologik qarashlar tizimi va pedagogik qadriyatlar tasnifi, pedagog kasbiy-pedagogik faoliyatining aksiologik mezonlari, kasbiy-pedagogik faoliyat rivojlanishiga aksiologik yondashuvni tatbiq etish zarurati va istiqbollari tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar**

Pedagog, shaxs, kasb, psixika, tarbiya, talab, metodika, kasbiy faoliyat, pedagogik faoliyat, o'quvchi, pedagogik qadriyatlar.

Yurtimizda oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog-o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan texnologik jarayonlar, ijtimoiymadaniy faoliyat kategoriyalari integratsiyalashuvi asosida muntazam takomillashtirib borilmoqda. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-son qarori, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" gi PQ -3775-son Qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan[1].

Pedagogik faoliyatning aksiologik asoslari va kasbiy-pedagogik faoliyatga aksiologik yondashuv, aksiologik ta'lim-tarbiya masalalarining qo'yilishi masalalari N.Shodiyev, A.CH.Choriyev, N.S.Kiyamov, X.A.Shayxova, B.G'.Ziyomammedov, Z.D.Davronov, Q.N.Nazarov, M.Tojiyev,



M.M.Qahhorova, G.H.Tillayeva va D.Habibullayeva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan[2].

Markaziy Osiyo pedagogikasi tarixida Kaykovus, Abu Nasr Forobiy, Najmiddin Kubro, Imom al-Buxoriy va Alisher Navoiyning qarashlarida bilim asosida farovon turmushga yetishish, ezgulik hamda yovuzlik o'rtasidagi kurashda ta'lim-tarbiyaning muhimligi, barkamol avlod tarbiyasi uchun nafaqat oila, shu bilan birga, butun jamoa a'zolari mas'ulligi to'g'risidagi g'oyalar ilgari surilgan[4]. Shuningdek, Y.A.Komenskiy, I.G.Pestalotssi va V. A. Suxomlinskiy kabi mashhur pedagoglarning ilmiy asarlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga oid aksiologik yondashuvlar o'z aksini topgan[5].

Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash komponentlariga eng avvalo o'qituvchining ijodkorligi kiradi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qibo'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi [6].

O'qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati tahlil qilinganda, mukammal shaklga ega bo'lgan tizimlardan iborat ekanligini ko'ramiz: - o'qituvchining sinfda o'quvchilar jamoasi bilan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan ijodiy tayyorgarligi; - o'quvchilar bilan bevosita o'zaro hamkorlik asosidagi ijodkorlik. Xorijiy mamalakatlarining ta'lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarida shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab metod va strategiyalar qo'llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talaba va o'quvchilarni o'quv materiallari yuzasidan chuqur o'ylashga majbur qiladi. Shu sababli bu metod va strategiyalarni kreativlik sifatleri nihoyatda past rivojlangan o'quvchi va talabalar bilan ishlash jarayonida samarali qo'llab bo'lmaydi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida shakllangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan pedagogik qobiliyat va mahorat, intellektual, motivatsion, kommunikativlik, kreativlik-ijodiy, perseptiv hamda shaxs dinamizmi ya'ni emotsional-irodaviy (irodaviy ta'sir o'tkazish va mantikiy ishontira olish) qobiliyatlar kompleksi kiradi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash darajasi bir necha omillar bilan bevosita bog'liq. Birinchidan, pedagogik faoliyati jarayonida individual xususiyatlarning mavjudligi, ularni tuzatish va takomillashtirish, ikkinchidan, pedagogning ijtimoiymadaniy muhitga singishi, ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-madaniy meyorlari va kasbiy mahoratini namoyon etishi. O'qituvchining kasbiy faoliyati va o'z kasbiga "kompetentligi" (loyiqligi), binobarin, o'qituvchilik faoliyatining samaradorligi, ma'lum ko'rsatkichlarga, masalan, pedagogning nimaga va qanday qilib o'rgatishini qanchalik tushunishi,



ham bilishi, uning bilim darajasi va pedagogik salohiyati, zamonaviy o'qitish texnologiyasini qay darajada o'zlashtirib olgani, kasbiy pedagogik maxorati, ta'lim berish va tarbiyalash hamda shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni qanchalik hal eta olish pedagogik kobiliyati bilan belgilanadi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatiga pedagogik maxorati va o'z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta'minlovchi, o'qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig'indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o'qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo'naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi (o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmalari va o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik qila olish malakasi) kiradi. Bu pedagogik mahorat tizimidagi o'zini tashqi ta'sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega to'rtta o'zaro bog'liq jixatlardir. Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyati -bu shaxs va faoliyat subektining murakkab, ko'p qirrali integral xususiyatlari majmuasi bo'lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat:

a) o'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar;

b) o'qituvchi faoliyati va shaxsiga qo'yilgan meyoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar (meyoriy professionalizm).

v) o'qituvchi subekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo'luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari o'qituvchi kasbiy faoliyati asosiy tarkibiy kislmlari sifatida "kasbiy mahorat", "pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi", "pedagogik ijodkorlik", "shaxsiy kasbiy salohiyat"ni belgilash mumkin.

O'qituvchi kasbiy faoliyati - bu o'quvchilar bilan hamkorlik va do'stona munosabatlar jarayonida namoyon bo'ladigan "ta'lim va tarbiya berish san'ati, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va erkin ijod"dir. Yuqorida keltirilgan fikrlar shu kunda o'qituvchidan mohirlik, ya'ni texnikani - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini bilish, uning usullarini egallash va ularni o'z faoliyatida qo'llay olishni talab etadi. Pedagogik mahoratni oshirishda o'qituvchi shaxsining insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsadga - barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birgalikda ta'lim jarayonini boshqarish bo'lajak o'qituvchilarni mutaxassislik fani, uni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyani mukammal bilishni talab qiladi.

Bugungi kunda davlatimiz ta'limi sohasi oldiga qo'yayotgan vazifalarning bajarilishi ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Shunday ekan, axloqning muhim jihatlaridan biri inson sha'ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmatini, avvalo, umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda inson o'z mehnatining salmog'i va sifati bilan,



aqliy va jismoniy mehnatining samarasi, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi, halol mehnat kishining qadri, izzat-hurmatini oshiradi. O'qituvchi, muallimning bajarayotgan ishi bugungi kunda jamiyatda ahamiyatlidir. Insonning qadr-qimmatini uning mansabi, kasbi-koridan ko'ra ham ko'proq o'z kasbini qanday bajarishi, uning odobi va xulq-atvoriga bog'liqdir.

O'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilib, ilmiy-nazariy asoslab, o'ziga ma'lum pedagogik prinsiplarni va uni amalga oshirish qoidalarini ishlab chiqadi. Pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, umumlashtirish va pedagogik ta'sir ko'rsatishning mantiqiy ketma-ketligini ishlab chiqishi, uning pedagogik mahorat cho'qqisini egallaganligini ko'rsatadi. Pedagogik vazifalarni hal etish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ya'ni o'qituvchilardan aqliy faoliyat usullari - tanqidiy tahliliy, mantiqiy fikr yuritishni talab etadi. Mazkur pedagogik faoliyat ta'lim tarbiya jarayonini asosiy bo'g'inlarga ajratish va istiqboldagi vazifalarni loyihalash ko'nikmalariga asoslanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchining shaxsini rivojlantirishga qaratilgan turli xil o'qitish usullari va yangiliklari bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ta'limning yangi sifatiga qanday erishish mumkinligini belgilab beradi. Kasbiy yo'nalganlikni muvaffaqiyatli shakllantirish bu oliy o'quv yurtiga topshirayotgan talabalarning kasbni tanlashidir. U umumiy abituriyentlar ichidan shu oliy o'quv yurtida o'qishga psixologik moslarini tanlashga yordam beradi. Turli metodlarni qo'llash orqali har bir abituriyentning real imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash, bo'lg'usi kasbni tanlashga yo'llash imkonini beradi. Oliy o'quv yurtiga kirgan talaba ijtimoiy-foydali, mazmunli faoliyat bilan doimo shug'ullanadi, natijada unda shaxsning kasbiy yo'nalganligi va kasbiy motivlar shakllanadi. Kasbiy yo'nalganlik muvaffaqiyatli shakllanishining doimiy omillaridan biri talabalar ta'limi va tarbiyasi jarayonida uning mazmuni va tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganish hisoblanadi. Bu o'zgarishlarning ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bog'liqdir: talaba oldin qanday maqsadlarni qo'ygan edi, hozir qanday maqsadlar qo'ymoqda, turli xil faoliyatlarda u o'zini qanday namoyon etadi, uning kasbga munosabati qanday, qiziqishlari, ideallari, o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar.

Bizningcha, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy motivatsiyasi aksiologik yondashuv asosida kasbiy yo'nalganlikning tarkibiy qismlaridandir. O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligi, ko'pincha uning shaxsiy kamoloti bilan ancha mustahkam bog'langan, uyg'un holatda namoyon bo'ladi. Uning kasbiy kamolotini baholash uchun esa, albatta, faoliyatning bir qator jabhalarini ajratib ko'rsatish lozim. O'qituvchilarning kasbiy shakllanishi jarayonini tadqiq etish esa, ularning kasbiy faoliyati to'g'risidagi tasavvurlarini o'rganishga olib keldi. Ushbu holatda bo'lg'usi boshlang'ich sinf pedagogining kasbiy tayyorgarlik jarayonida



pedagogmurabbiyda shakllanishi lozim bo'lgan sifatlarni qay darajada o'zida kamol toptirishga erishayotganligini baholashda muloqotmandlik, tashkilotchilik, predmetlarga yo'nalganlik, intelligentlik, qo'llab-quvvatlash motivlaridan iborat jabhalarda tadqiq etildi.

Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorlash jarayonida yetakchi faoliyat yo'nalishlarining nimaga qaratilganligi va ularni faoliyat bosqichlariga binoan o'zgarishlar o'ziga xosliklarini aniqlashga erishildi. Aslida mutaxassislar tayyorlash jarayonining umumiy maqsadi Davlat ta'lim standartlarida belgilangan kasbiy qoidalar va bilimlarni o'zlashtirish uchun qo'yilgan talablarga bog'liq.

**Xulosa** o'rnida shuni aytish mumkinki, aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasiga quyidagilar kiradi:- barkamol shaxs sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan, yuksak huquqiy va umumiy madaniyatli, g'oyaviy-siyosiy jihatdan yetuk, ma'naviy-axloqiy yetuklikka ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarkib topgan, horijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, axborot -kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal egallagan bo'lishi va boshqalar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni. Qonun xujjatlari to'plami milliy bazasi <https://lex.uz/>

2. Aristotel. Sochineniya: V 4-x t. T.4. -M.: Misl, 1983; Seneka Lutsiy Anniy. Nравstvenniye pisma kLutsiliyu. -M.: Nauka, 1977.

3. Kaykovus. Qobusnoma; Shayx Najmiddin Kubro. Ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim / Bu haqda batafsilroq qarang: Juzjoniy A. Sh. Tasavvuf va inson. - Toshkent: Adolat, 2001. - 89 b.

4. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., Turayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T.: Sano standart, 2015.

5. Mardanov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayèrlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. - T., 2006. - 302 b.

6. Omelchenko YE.A. Pedagogika semeynogo vospitaniya. - Novosibirsk, 2012.